



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKСУДАЛИ KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 342.9(045)(575.1)

MA'MURIY ORGANLARNING QARORLARI USTIDAN SHIKOYAT QILISH TUSHUNCHASI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qoshjanova Darixa Smetovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

e-mail: Qoshjanovadarixa@gmail.com

ORCID: 0000-0002-9061-0851

Annotatsiya. Mazkur maqola ma'muriy organ qarorlarini sud tartibida ko'rish masalalarining o'ziga xos jihatlari, shikoyat qilish tushunchasini yoritib berishni tashkil etadi, shuningdek ma'muriy organ qarorlarini ko'rishning protsessual tartibi bo'yicha bir qator yuridik sohada tadqiqot olib borgan chet el olimlari tomonidan berilgan fikrlarni tadqiq etib ularni tahlil qilindi. Maqolada sud qarorlaridan shikoyat qilishda murojatlar to'g'risidagi qonunchilik normalariga asoslanib shikoyat qilish va murojaatlarning turlari ham qo'shimcha tarzida keng yoritib berilgan va shuning bilan bir qatorda ma'muriy organ qarorlari bo'yicha shikoyat berish avval fuqarolik sudlar tomonidan ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bunday ishlar ma'muriy sudning sudloviga tegishli ekanligi haqida ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Tadqiqot predmeti sifatida ma'muriy organ qarorlari ustidan beriladigan shikoyatlar bo'yicha ish yuritishni tartibga solib turadigan qonunchiliklar va chet el tajribalari olingan bo'lsa, ma'muriy organ tomonidan chiqarilgan qarorlarni sud tartibida ko'rish orqali qonunchilikka zid keladigan qarorlarni bekor qilish va fuqoralarning va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni amalga oshirish jarayonlari hamda bu jarayondagi kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar tadqiqot obyekti sifatida olingan.

Kalit so'zlar: ma'muriy organ, davlat organlari, boshqaruv organi, ma'muriy hujjat, ma'muriy-huquqiy munosabatlar, qaror, nizo, talab.

ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ОБЖАЛОВАНИЯ РЕШЕНИЙ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ОРГАНОВ

Кошжанова Дариха Сметовна,

магистрант Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. Данная статья представляет собой освещение специфики вопросов обжалования решений административного органа в судебном порядке, понятия обжалования, а также анализирует мнения, высказанные зарубежными учеными, проводившими исследования в ряде юридических областей по процессуальному порядку обжалования решений административного органа. В статье подробно рассмотрены виды жалоб и обращений при обжаловании судебных решений на основании норм законодательства об обращениях, а также приведена информация о том, что если ранее подача жалоб на решения административного органа осуществлялась в рамках гражданских судов, то на сегодняшний день такие дела относятся к ведению административного суда. В случае если в качестве предмета исследования были взяты законодательные акты и зарубежный опыт, регламентирующий производство по жалобам на решения административного органа, то в процессе рассмотрения в судебном порядке решений, внесенных административным органом, рассматриваются процессы отмены противоречащих законодательству решений и осуществления судебной защиты прав и интересов граждан и юридических лиц, а также

возникающие в этом процессе общественные отношения, что используется в качестве объекта исследования.

Ключевые слова: административный орган, органы государственной власти, орган управления, распорядительный документ, административно-правовые отношения, решение, спор, требование.

THE CONCEPT OF COMPLAINT OVER THE DECISIONS OF ADMINISTRATIVE BODIES, ITS SPECIFIC FEATURES

Qoshjanova Darixa Smetovna,

Master's Student at Tashkent State University of Law

Abstract. This article covers the specific characteristics of the issues of judicial review of decisions of the administrative body, highlighting the concept of appeal, as well as the procedure for the review of decisions of the administrative body, and analyzes them after examining the opinions expressed by foreign scientists who conducted research in a number of legal spheres. The article also provides information on the fact that the types of complaints and judgments based on the norms of the legislation on appeals when making a complaint against court decisions are also widely covered in the annexed scales, and therefore, in addition, the filing of a complaint against the decisions of the administrative body was first seen from the civil point of view. As a subject of the study, the law that regulates the proceedings on complaints filed against the decisions of the administrative body and foreign experiences were obtained, through the judicial review of the decisions made by the administrative body, the processes of the implementation of the annulment of decisions that contradict the legislation and the protection of the rights.

Keywords: administrative body, state bodies, governing body, administrative document, administrative-legal relations, decision, dispute, request.

Kirish

Ma'muriy huquq sohasida sud ishlarini yuritish turlaridan biri davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritishdir [1, 16-b.]. Bu turkumdagi ishlarni bugungi kunda fuqarolik qonunchiligidagi tutgan o'рни, fuqarolarning ariza va shikoyatlarini sud tartibida hal etishdagi ijobiy jihatlari amaliyotda o'z samaralarini berayotganligi shaxs manfaatlarini, ularning qonuniy huquq va erkinliklarini himoya qilishda namoyon bo'lmoqda.

Sudda ish yuritishning bu turiga oid masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirgan protsessualist olimlarni asosan ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Ular tomonidan bildirilgan fikrlar qanchalik mustaqil bir-biriga uzviy ravishda aloqador va bir-birlarini nechog'lik to'ldirib borsa-da, bu olimlarning fikr-mulohazalari hozirgi kun talablari nuqtayi nazaridan qanchalik to'g'ri va bahsli ekanligini, shuningdek bildirilgan har bir fikr ish yuritishning ushbu turiga oid munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish ishlari bilan bog'liq masalalarni yaxshi bilib olishda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi, bu ish yuritishning huquqni da'vo shaklida himoya qilish bilan qanchalik bog'liqligi va uning o'ziga xos tomonlarini aniqlab berishdagi roli nimalardan iborat ekanligi masalalarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy-huquqiy nizolar atamasi birinchi marta Tixomirov tomonidan taklif qilingan bo'lsa, doktrinada ushbu turdagi nizolar qonun bilan belgilangan jamoat xarakteriga ega bo'lgan vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqiladigan tartib sifatida tushunilgan [2, 8-13-b.].

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardagi bu huquq sohasidan kelib chiqadigan ishlar asosan sud yo'li bilan emas, ma'muriy tartibda hal qilinadi. Amaldagi FPKning uchinchi kichik bo'limi:

“Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish” deb nomlanib, o'z kuchini yo'qotgan 1963-yilgi Grajdanklik protsessual kodeksda esa xuddi shu ish yuritish turi: “Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha ish yuritish” deb nomlangan. Amaldagi Fuqarolik kodeksida ham “yuqorida bayon qilingan ish yuritish turi to'g'risidagi qoidada” qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqlari ma'muriy tartibda himoya qilinishi, ma'muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan (FKning 10-moddasi 2-qismi) [3, 6-b.]. Shuning uchun ushbu tadqiqotda ayrim hollarda “ma'muriy organlar”, “ma'muriy-huquqiy munosabatlar” deb ishlatilishi mumkin. “Ma'muriy organ hamma vaqt burchli shaxsga nisbatan o'z huquqini o'zi amalga oshiradi, amaliyotda aksariyat hollarda shunday ham bo'ladi. (Shofyorlar hujjatini olib qo'yish, ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilgan shaxsga jarima solish va uni undirish va boshqalar). Hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan va o'z vakolati doirasida harakat qiluvchi ma'muriy organ o'zining alohida holati bo'yicha ma'muriy-huquqiy munosabatlarda o'z harakatlarini amalga oshirishga nisbatan roli bo'lishi zarur”. Shuning uchun ma'muriy organlarning harakatlari ustidan sud nazoratini belgilash uchun hech qanday zaruriyat yo'q deb fikr bildiradi [4, 4-b.]. Chunki ma'muriy organlar vakolat doirasiga kiruvchi huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarini mustaqil tarzda ro'yobga chiqarishga oid masalalar qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning vakolatiga tegishlidir [5, 21-b.].

Biroq qonunda ayrim hollarda ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ayrim turkumdagi ishlar, jumladan, saylovchilar ro'yxatidagi noto'g'riliklar ustidan berilgan shikoyatlarga oid ishlar [6, 105-b.]; Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish [7, 100-b.] sudlarga taalluqli qilib belgilangan.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudlarga taalluqli bo'lishi qonunda belgilab qo'yilgan bo'lib, bunday turkumdagi ishlar qonunda ko'rsatilganidek, fuqarolik-sud ishlarini yuritishning umumiy qoidaloriga amal qilgan holda ko'rib hal qilinadi [7, 101-b.] (FPKning 265-moddasi). Shuning uchun bu huquq sohasidan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish turini da'voli ishlarga oid sud ishlarini yuritish turi bilan taqqoslamasdan turib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada yoritib bo'lmaydi.

Sudlarga taalluqli ma'muriy-huquqiy munosabatlarning asosiy mohiyati, –deydi ayrim protsessualchi olimlar, bu hokimiyat sohiblari va unga itoat etuvchilar o'rtasidagi munosabat bo'lib, bunday munosabatda huquq to'g'risida hech qanday nizo bo'lishi mumkin emas, chunki hokimiyat organi barcha hollarda o'z vakolatlarini huquqiy munosabatning boshqa subyektiga nisbatan mustaqil tarzda amalga oshiradi. Shu boisdan sudning vazifasi huquq to'g'risidagi nizoni hal qilish emas, balki davlat hokimiyati va davlat idora organlari (mansabdor shaxslar) harakatlarining qonuniyligini tekshirib chiqishdan iborat bo'lishi kerak, – deb ta'kidlaydilar [8, 12-46-b.].

Material va metodlar

Yuqorida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha yana bir qator olimlar tomonidan berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib o'tsak. Bu mualliflar davlat, ma'muriy va moliya-huquqiy munosabatlar nizoli holatda bo'lishi mumkin emas, deb ko'rsatsa-da, yuqorida bayon qilganimizdek, da'voli ishlarda nizo bo'lishi to'g'risida hech qanday shubha-e'tirozlari bo'lmasa ham, biroq sudga taalluqli ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarda “Nizo” bo'lmasa-da, lekin fikrimizcha, nizoning bir turi bo'lmish “talab” bo'lishi turgan gap. Shuning uchun ham P.F. Eliseykin yuridik adabiyotlarda bildirilgan ayrim fikrlarga bu fikrini tegishli dalillar bilan asoslab bermaydi [9, 22-b.]. “Davlat, ma'muriy va moliya-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan va qonunga ko'ra sudlarga taalluqli ishlarda huquq to'g'risida nizo mavjud bo'ladi va bu munosabatlar fuqarolik munosabatlari kabi to'liq ma'nodagi nizoli munosabatda bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun yuqoridagi muallifning fikri bilan kelishib bo'lmaydi”, degan mualliflarning xulosasini qisman haqiqatga yaqinligini ta'kidlaymiz.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy -huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritishda huquqning mavjudligi, manfaatlari bir-biriga zid taraflarning bo'lishi va ular ishtirokining majburiyligini isbotlaydi. Darhaqiqat, fuqaroning ma'muriy organ harakatini noto'g'ri hisoblab, sudga shikoyat bilan murojaat qilishligini, shuning o'zi fuqaro ma'muriy organ harakatidan rozi emasligini ko'rsatuvchi omil bo'lib, u bunday harakat yuzasidan nizolashishidan dalolat beradi va bu o'z navbatida ma'muriy-huquqiy munosabatlarning nizoli tabiatini ko'rsatadi. Bunday holda sud protsessi tortishuvchilik prinsipi asosida amalga oshirilib, fuqaro ma'muriy organ harakatining g'ayriqonuniy ekanligini isbotlaydi, ma'muriy organ esa, o'z navbatida fuqaroning shikoyati bilan kelishmagan taqdirda, o'z harakatining qanchalik qonuniy va asosli ekanligini isbotlashi va fuqaroning shikoyatini rad etishni talab qilishi mumkin.

Yuqorida bayon qilganimizdek, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarda ayrim mualliflar, sudning asosiy vazifasi huquq to'g'risidagi nizoni hal qilish emas, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslar harakatining qonuniyligini tekshirishdan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar.

Demak, bunday turkumdagi ishlarning zamirida fuqarolik nizo huquqiy talab emas, balki ma'muriy talab yotadi. Huquqiy munosabat davlat hokimiyati va boshqaruvi mansabdor shaxslari bilan huquqi buzilgan shaxslar o'rtasida vujudga keladi.

Fuqarolik-sud ishlarini yuritish vazifalariga to'xtalib, I.A. Jeruolis, "Barcha fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritish vazifasi bir xildir. U ham bo'lsa, bu vazifa ijtimoiy tuzumni, davlat mulkini, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mehnat, turar joy va boshqa shaxsiy hamda mulkiy xarakterdagi huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, shuningdek davlat korxonalari, tashkilotlari, muassasalari, jamoa xo'jaliklari, boshqa turdagi shirkat va jamoat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini tez va to'g'ri ko'rib hal qilishdan iborat. Da'voli ishlarda sud ishlarini yuritish vazifasiga huquqqa oid nizoni ko'rib hal qilish yo'li bilan erishilsa, boshqa ishlar bo'yicha (alohida tartibda ish yuritishga oid ishlar) xarakterda bo'lmagan huquqni tasdiqlash yoki ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar yoki yuridik faktlar bor yoki yo'qligini belgilash yo'li bilan erishiladi. Huquq bilan bog'liq barcha nizolar sudda faqat da'voli ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish tartibida hal qilinishi kerak. Ikki taraf o'rtasida huquq to'g'risida yuzaga kelgan nizo sudda hal qilinayotganida ular bir xildagi protsessual huquqlardan foydalanadilar va teng protsessual majburiyatlarni o'z zimmasiga oladilar [10, 151-155-b.].

Sudda ko'rib hal qilish uchun taqdim qilingan ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ish bo'yicha ma'muriy organ huquqiy munosabatlarning ikkinchi tomonida ishtirok etayotgan taraf bo'lib, o'z vakolatlarini shaxsan o'zi amalga oshiradi. Ayrim hollarda ma'muriy organ bunday ishlar bo'yicha o'z vakolatlarini bir xilda amalga oshirish maqsadida, huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlarga moddiy-huquqiy munosabatlarning talablarini ro'yobga chiqarishni topshirishi mumkin. Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlardagi ishtirokchilar o'z vakolatlariga ko'ra, yuqori turuvchi va itoat etuvchilarga bo'linmay, nizo bo'yicha teng darajadagi taraflar bo'lib qoladilar. Shuning uchun taraflarning har biri talab yuzasidan o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega shaxslar hisoblanadi. Bu masala bo'yicha protsessualist olim A.T. Bonner "Mustaqil sud oldida ma'muriy-huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari, boshqaruv organi va fuqaro to'la ma'noda teng huquqli bo'lib qoladilar", ular da'voli ishlardagi taraflar kabi o'zlarining ishga oid holatlari to'g'ri ekanligini va ikkinchi tarafning talabi noto'g'ri ekanligini isbotlashga oid protsessual imkoniyatlarga teng darajada ega bo'ladilar [11, 108-117-b.], degan fikrni bildiradi. Fuqarolik sud ishlarini yuritish qoidalari bu turkumdagi ishlarga ham bir xilda qo'llaniladi. Shu boisdan ham sudning hal qiluv qarori ham ma'muriy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga teng darajada tatbiq etiladi.

Shularga ko'ra, qonunda sud ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni, ayrim istisnolardan tashqari, da'voli ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib hal qilishi

belgilangan. Bunday ishlarni sudda ko'rib hal qilish bilan bog'liq ayrim protsessual xususiyatlar o'z mohiyati jihatidan unchalik muhim ahamiyatga ega emas.

Bu masala yuzasidan A.A. Dobrovolskiy mehnat-huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarini ko'rib hal qilish o'z xususiyatlari bilan fuqarolik ishlarini ko'rib hal etishdan farq qiladi. Oila-huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rib hal qilish ham o'zining ma'lum protsessual xususiyatlariga ega. Lekin bu farqlar, ushbu nizolarni ko'rib hal qilishning protsessual shakli bo'lsa-da, da'voli ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritishdagi muhim belgilarini yo'qotolmaydi [12, 222-250-b.] deydi. Chunki yuqoridagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko'rib hal qilishdagi farqlar unchalik muhim ahamiyatga ega emas va bu ishlarning da'voli xarakterini yo'qotish uchun asos bo'lmaydi.

Muallif fuqarolik protsessual huquqida huquq to'g'risidagi nizoni da'vo shaklida ko'rib hal qilishdan boshqacha shakl o'rnatilmagan, – deb juda to'g'ri fikr bildiradi. Huquq to'g'risidagi nizolar faqat da'vo shaklida ko'rib hal qilinadi. Bunda huquq to'g'risidagi nizo moddiy huquqning qaysi sohasidan kelib chiqqanligi e'tiborga olinmasligi kerak. Demak, ma'muriy-huquqiy munosabatlar mahsuli bo'lgan ishlar sudda da'vo shaklida ko'rib hal qilinishi kerak va sud amaliyotida shunday tartibda hal qilinmoqda. Chunki bu ishlarda ham huquq to'g'risida nizo mavjud. Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarda manfaatdor shaxs, ya'ni ish yuzasidan arz qiluvchi shaxs, sudga da'vo arizasi bilan emas, shikoyat yoki oddiy ariza bilan murojaat qiladilar.

Tadqiqot natijalari

Ma'muriy sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorida aniqlangan holatlar boshqa ishni ko'rayotgan fuqarolik ishlari bo'yicha sud uchun majburiy hisoblanishi belgilangan bo'lib, bir sud ishi doirasida ba'zilar ma'muriy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari bo'yicha sudga taalluqli bo'lgan bir nechta talabni birlashtirishni taqiqlash amalda tatbiq etiladi.

Ma'muriy sudlar butun dunyoda davlat boshqaruvi organlari faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolarni hal etish, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va qabul qilgan qarorlari qonuniyligi ustidan sud nazoratini ta'minlashning eng demokratik mexanizmi hisoblanadi. Hozirgi kunda tashkil etilgan ma'muriy sudlarning faoliyat yuritishi jahon amaliyotiga to'liq mos keladi. Aynan ma'muriy sudlar rivojlangan mamlakatlar hisoblangan Italiya, Fransiya, Germaniya davlatlarida ham ma'muriy sudlar faoliyati shu asnoda tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarda manfaatdor shaxs, ya'ni ish yuzasidan arz qiluvchi shaxs, sudga da'vo arizasi bilan emas, shikoyat yoki oddiy ariza bilan murojaat qiladilar. Bunday tartib protsessual qonunchilikda o'z ifodasini topgan. Ayrim protsessualchi olimlar bu masalaga o'z munosabatlarini bildirib, da'vo arizasi va shikoyat tushunchasini chegaralashga harakat qilib, 1) da'vo arizasi deganda, da'vogarning javobgarga nisbatan bildirgan moddiy-huquqiy talablarini o'zida ifoda etishini; 2) shikoyatda esa bunday talablar bo'lmasligini bildirganlar[13,109-b].

Amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksining 3-kichik bo'limi davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish bilan bog'liq turkumdagi ishlar deb nomlanishining o'zi ayrim mulohazalarga chorlaydi. Bunday turkumdagi ishlarni ko'rishda Fuqarolik protsessual qonunchiligi "da'vo" so'zini tatbiq etmaganligi, faqat "shikoyat" va "ariza" so'zlari ishlatilganligining guvohi bo'lamiz [14,131-b].

"Shikoyat" va "ariza" so'zlarining mazmun-mohiyati nimalarni anglatadi, degan savolga quyidagi tushuntirishlarni keltirishni lozim topdik.

"Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabrda qonunida ko'rsatilishicha, fuqarolarning murojaatlari (bu yerda qaysi organga murojaat etishdan qat'i nazar) ariza, taklif yoki shikoyat ko'rinishida bo'lishi mumkinligi bayon qilingan. Unda:

ariza deganda – fuqaroning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan hujjat ekanligi;

taklif – fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan hujjat ekanligi;

shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan hujjat ekanligi ifodalangan[15,2-b].

Da'vo arizalar, shikoyat va arizalarning mazmun va mohiyatlari, fuqarolik protsessual qonunchiligida tutgan o'rni haqida quyida batafsilroq to'xtalamiz.

Yuridik adabiyotlarda bildirilgan ayrim fikrlarda shikoyatda ma'muriy-huquqiy munosabatlarning boshqa subyektiga nisbatan qilingan moddiy-huquqiy talabi bo'lmasligi, shuning uchun ma'muriy organlarning harakatlari ustidan berilgan shikoyat yuzasidan ish yuritishni, da'voli ishlar bo'yicha ish yuritishga, kiritib bo'lmasligi haqidagi mulohazalarga qo'shilgan holda barcha sudlarda ko'riladigan fuqarolik ishlarida nizo mavjud, degan fikrda bo'lish ish yuritish turlarini inkor etishga olib keladi degan xulosaga kelish mumkin bo'lmaydi, degan fikriga qo'shilib bo'lmasligini bildirgan. Bu fikrga qo'shilmagan boshqa protsessualistlar esa, agarda taraflar o'rtasida huquq to'g'risida nizo bo'lsa, bu nizo o'z navbatida da'vo arizasida yoki shikoyatda o'z ifodasini topgan moddiy-huquqiy talab ekanligini bayon qiladilar [16, 54-b.] Ikkala holatda ham sud talabning huquqqa qanchalik asoslanganligi bilan bog'liq masalani ko'rib hal qiladi, degan fikrini bayon qiladi.

Bunday qarashlar o'zining ijobiy jihatlari bilan farqlanadi, chunki sud da'voli ishlar bo'yicha ham, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarda ham da'vo arizada yoki shikoyatda sudga taalluqli ishlar bo'yicha moddiy-huquqiy talablar huquqning qaysi bir sohasidan kelib chiqmasin, ko'rsatilgan talabning huquq normalariga qanchalik asoslanganligi bilan bog'liq masalanigina hal qiladi.

Agar da'vo arizasida yoki shikoyatda huquq to'g'risida nizo borligini asoslaydigan bir tarafning boshqa tarafga bildirilgan moddiy-huquqiy talabi bo'lmasa, sud ishlarini yuritish predmetsiz bo'lib qoladi. Bir tarafning ikkinchi tarafga nisbatan bildirilgan moddiy-huquqiy talabi bo'lmas ekan, taraflar o'rtasida nizolashishga asos bo'lmaydi va sud tomonidan tekshiriladigan narsaning o'zi ham bo'lmasligi haqidagi fikrga dissertant o'zining munosabatini bildirib, sudlarda alohida tartibda ko'riladigan ish yuritish turidagi ishlarda nizo va taraflar bo'lmasdan faqat o'z muddaosini aytib, sudga murojaat qilgan arizachi bo'ladi. Bunday tartibda ish yuritishdan maqsad fuqarolarning biron-bir huquqlarini vujudga kelganligi, o'zgarganligi yoki bekor bo'lganligi, ya'ni yuridik faktlarning mavjudligi yoki ularning mavjud emasligini aniqlash mumkin bo'lsa-yu, bunday ish yuritishda "sud tomonidan tekshiriladigan ishning o'zi bo'lmaydi" deyishga asos bo'lmasa kerak.

Fuqarolik protsessual qonunchiligida o'z kuchini yo'qotgan 1963-yilgi GPKda "Ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha ish yuritish" deb nomlangan bu bo'lim amaldagi FPKda yuqorida bayon etganimizdek, "Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish" deb to'g'ri va keng ma'noda nomlangan. Bu turkumdagi ishlarning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bular sudga murojaat qilish usullari, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ish ko'rish muddatlari va qonunda belgilangan boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi.

Shuning uchun ham FPKning 265-moddasida bu turkumdagi ishlar "sudlar tomonidan mazkur kodeksning 26-29 boblarida ko'rsatilgan istisno va qo'shimchalar bilan birga fuqarolik sud ishlari yuritishning umumiy qoidalariga binoan ko'rilishi" ta'kidlangan.

Fikrimizcha, ushbu qoidaga ko'ra, bunday turkumdagi ish yuritishni da'vo tartibida ish yuritishdan farqi qonunda o'z ifodasini topganligi tufayli bunday ishlarni "alohida ish yuritish turi" deb nomlash haqidagi ayrim mulohazalarga qo'shilmasa ham bo'ladi.

Ayrim hollarda ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni da'voli ishlar qatoriga kiritish lozimligi haqida fikr-mulohaza bildirgan mualliflar shu munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudga ko'rib hal qilish ayrim istisnolardan tashqari, fuqarolik-sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga asoslansa ham, sudga ish ko'rish muddatlari, sudga murojaat qilish usullari bilan farq qiladi [17, 97-b.].

Fuqarolik protsessual qonunchiligi ana shu farqlarni e'tiborga olib, bunday ishlarni sudga ko'rib hal qilish sud ishlarini yuritishning alohida turi qilib ko'rsatgan. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 264-moddasida ham o'z ifodasini topgan.

Muqaddam ayrim yuridik adabiyotlarda, hozirda esa Rossiyaning GPKsida ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish deb nomlanib, bu o'z ichiga fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini ommaviy-huquqiy munosabatlar yuzasidan himoya qilishni, fuqarolarning saylovga oid huquqlarini himoya qilishni, ma'muriy organlar va mansabdor shaxslarni ma'muriy tartibda jarima solish bo'yicha chiqargan qarorlari yuzasidan berilgan shikoyatlar bo'yicha sud ishlarini yuritishni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kamsitishga qaratilgan va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha sud ishlarini yuritishni va me'yoriy hujjatlarni qonunga xilof deb topish ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritishni o'z ichiga oladi [18, 154-b.].

Xulosalar

Xulosa o'rnida shu ta'kidlash lozimki, ma'muriy sudlarning tashkil etilishi mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali ishonchli himoyalashiga mustahkam konstitutsiyaviy mexanizm hisoblanadi.

REFERENCES

1. Davlat oranlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-xarakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo'yicha ish yuritish [Proceedings on complaints and applications against the actions (decisions) of government agencies and other bodies, as well as officials]. P. 16. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/259371/>.
2. Tixomirov Y.A Publichno-pravovye spori [Publichno-pravovye spori]. Pravo i ekanomika. 1998. № 6, pp. 8–13.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda [As amended by the Law of the Republic of Uzbekistan dated April 21, 2021 No. ZRU-683. National Database of Legislation, April 21, 2021, No. 03/21/683/0375]. <https://uz.denemetr.com/download/docs-46194/810-46194.doc/>.
4. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. Qarang: http://www.lex.uz/pages/SearchResult.aspx?f=1&sid=-983422318&a1=1&a2=1&a3=1&a4=1&form_id=3964&action=show_result [Code of Administrative Procedure of the Republic of Uzbekistan. http://www.lex.uz/pages/SearchResult.aspx?f=1&sid=-983422318&a1=1&a2=1&a3=1&a4=1&form_id=3964&action=show_result/].
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O'zR 30.08.1997 y. 477-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan) 272-moddasi [Article 272 of the Code of Civil Procedure of the Republic of Uzbekistan (approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated 30.08.1997 No. 477-I)].
6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O'zR 30.08.1997 y. 477-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan) 264-moddasi [Article 264 of the Code of Civil Procedure of the Republic of Uzbekistan (approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated 30.08.1997 No. 477-I)].
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O'zR 30.08.1997 y. 477-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan) 265-moddasi [Article 265 of the Code of Civil Procedure of the Republic of Uzbekistan (approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated 30.08.1997 No. 477-I)].
8. Panova I.V. Problemi rassmotreniya administrativnix del [Problems of consideration of administrative cases]. Bulletin of the Supreme Arbitration Court of the Russian Federation. 2012. No. 5. Pp. 12-46.
9. Eliseykin P.F. Sudebniye ustanovleniye faktov, imeyushih yuridicheskoe znachenkiye [Judicial establishment of facts of legal significance]. M., 1973.
10. Jeruolis I., Redkol, Bulota A., Vansyavichyus S., Jeruolis I., Jyurlis A., Palskis E. Sushnost sovetskogo grajdanskogo protsesssa [The essence of the Soviet civil process]. : Vilnius, 1969. 204 p.

11. Bonner A.T Problemi ustanavljeniya istini v grajdanskom protsesse [Problems of establishing the truth in civil proceedings]. St. Petersburg: LLC University Publishing Consortium, Legal Book, 2009.
12. Argunov V.N „Dobrovolskiy A.A., i dr. Sovetskiy grajdanskiy protsess [Soviet civil procedure]. M. : Publishing House of Moscow State University, 1989. 462 s.
13. Administrativnoe sudproyvodstvo :Uchebnik dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy po napravleniyu “Yurisprudentsiya ” (spetsiyalist,bakalavr,magistr) /Pod red V.V.Yarkova. – M.: Statut , 2016. – 560 s. [Administrative legal proceedings: A textbook for students of higher educational institutions in the direction of “Jurisprudence” (specialist, bachelor, master) / Ed. V.V. Yarkova. - M.: Statute, 2016. - 560 p.]
14. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (O‘zR 30.08.1997 y. 477-I-son Qonuni bilan tasdiqlangan) 3-kichik bo‘limi[Code of Civil Procedure of the Republic of Uzbekistan (approved by the Law of the Republic of Uzbekistan dated 30.08.1997 No. 477-I) Subsection 3]
15. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonuni 5-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 49-son, 578-modda)[Article 5 of the Law on Appeals of Individuals and Legal Entities (Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2014, No. 49, Article 578)]
16. William Funk, Sidney Shapiro, Russell Weaver. Administrative Procedure and Practice, Problems and Cases. 5th Edition, 2014, West Academic Publishing, the USA.
17. Hamedov I.A., Hvan L.B ., Tsay I.M. Administrativnoe pravo Respubliki Uzbekistan Obshaya chast Uchebik –T.: Konsauditinform-Nashr, 2012. – 591 s.[Xamedov I.A., Xvan L.B., Tsay I.M. Administrative law of the Republic of Uzbekistan Obshchaya chast. Uchebnik. –T .: Konsauditinform-Nashr, 2012. - 591 p]
18. Administrativniy protsess: uchebnik dlya bakalavriyata i magistraturi / pod red. M.A. Shtatinoy. – M.: Izdatelstvo Yurayt , 2015. – 364 s.[Administrative process: textbook for bachelors and masters / under red. M.A. Shtatinoy. - M .: Izdatelstvo Yurayt, 2015. - 364 p.]

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.